

## ABU NASR FOROBIY G'OVALARIDA OLAM VA INSON MUNOSABATI

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti*

*Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi*

*E-mail: abdufattoyevashahrizoda@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Sharq falsafasi va madaniyati*

*kafedrasi dotsenti, f.f.n. M. Qodirov*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning falsafiy-ontologik qarashlari aks etgan. Unda uzoq asrlar davomida ko'plab baxs munozaralarga sabab bo'lib kelgan olam va odam to'g'risidagi jumboqlarga Forobiy tomonidan berilgan mukammal javoblari, olam va inson munosabati tahlil qilingan. Shunindek, Farobiyning borliqning paydo bo'lishi to'g'risidagi ham ilmiy, ham diniy nuqtai nazaridan ilgari surgan "vojib ul-vujud" hamda "mumkin ul-vujud" g'oyalari aks etgan.

**Kalit so'zlar.** Abu Nasr Farabi, borliq, materiya, modda, birinchi sabab, faol aql, shakl, ruh, samoviy jismlar borlig'i, "vojib ul-vujud" hamda "mumkin ul-vujud" g'oyalari, "Substansiya haqida risola".

Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mashxur faylasuf, qomusiy olim Forobiyning to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug' Tarxon edi. U 873-yil Sirdaryo sohilidagi Farob shahrida turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Forobiy yoshligidan bilimga chanqoq, bilimli va g'ayratli bo'lib voyaga yetadi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharxlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g'oyalarining targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Forobiy, shuningdek Aflatun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlariga ham sharhlar yozganligi ma'lum.

Forobiy Aristotel asarlariga sharhlar yozish davomida uning g'oyalaridan o'z falsafiy bilimlarini boyitib boradi va unga ergashgan holda "Sharq Arastuchiligi" maktabiga asos soladi. Aristotelni ilmiy fikrlar rivojiga qo'shgan hissasi uchun nafaqat Yevropa, balki butun dunyo "Birinchi muallim" deb e'tirof etsa, Forobiy g'oyalarida Aflatun qarashlari sezilib turganligi uchun uni Sharqda "Muallim as-Soni", ya'ni, "Ikkinchi muallim" deb ulug'laydi.

Forobiy turli ilmlarni yaxshi o'zlashtirgan inteklopedik olim edi. U falsafa, mantiq, ilohiyot, axloq, siyosat, falakkiyot, kimyo, musiqa va boshqa ilmlarga oid o'nlab

kitoblarni yozgan. Ayniqsa, uning “Substansiya haqida risola” asari noyob asarlaridan biridir. Farobiy unda o’zining borliq falsafasiga doir fikrlarini aks ettirgan.

Forobiy birinchi bo’lib Alloh taolonning borligiga olamni dalil qilib ketirmay U zotning borligini yolg’iz aqliy dalil bilan isbot qilishning yangi uslubini keltirdi. U bor narsalarni ikkiga – “vujudi mumkin” (mumkin ul-vujud) va “vujudi vojib” (vojib ul-vujud)ga taqsimlaydi. Mumkin ul vujud dunyodagi mavjudotlar bo’lib, ularning bo’lishi mumkin bo’lganidek, bo’lmasligi ham mumkin. Ularga qarasak ba’zilari yo’qolib, o’rniga boshqalari paydo bo’lib turganini ko’ramiz. Ana o’shalar o’zidan boshqa narsaning tasiri tufayli o’zgaradi va almashadi. Ularning har biriga alohida nazar solsak ham shu holni ko’ramiz. Bu silsilaning oxirgi nuqtasi bo’lishi kerak. Ana o’sha ohirgi nuqta, hamma mumkin ul vujudlarning borib taqaladigan nuqtasi vojib ul vujud - vujudi vojib bo’lgan, u bo’lmasa boshqa narsalar bo’lmaydigan zotdir.

Forobiyning falsafasida Alloh – vojib ul-vujuddir. Mazkur aqliy dalilga binoan vojib ul-vujud quyidagi sifatlarga ega:

1. Alloh taoloni ta’riflash mumkin emas.
2. Alloh taolonning boshqa narsalarga o’xshab mohiyati yo’q.
3. Alloh taolo zarurat yuzasidan yolg’izdir, sherigi yo’qdir.
4. Alloh taolo modda emas. U holis aqldir. U holis yaxshilikdir.

Forbiyning Islom aqidalariga to’g’ri kelmaydigan falsafasidan biri «Alloh juz’iy narsalarni bilmaydi» deyishidir. Ammo biz bilamizki, islom aqidalariga ko’ra Alloh har narsani bilguvchi va ko’rguvchidir.

Forobiy fikricha, yagona borliq olti bosqichdan iborat bo’lib, ular ayni bir vaqtida barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bog’lanishdadirlar. Birinchi bosqich – birinchi sabab (Xudo); ikkinchisi – samoviy jismlar borlig’i; uchinchisi – faol aql, to’rtinchisi – ruh; beshinchisi – shakl; oltinchisi – modda.

Shunday qilib, Xudo va modda, yagona bir butunni tashkil etib, bir qator bosqichlar orqali bir-birlari bilan sababiy bog’lanishdadirlar. O’zlarining sababiy bog’lanishlari tufayli ushbu ibtidolar ikki ko’rinishga ajratiladilar: «vojib ul-vujud» - shunday narsaki, mavjudligi o’zidan kelib chiqadi; «mumkin ul-vujud» - shunday narsaki, uning mavjudligi boshqa narsadan kelib chiqadi. «Mumkin ul-vujud» o’zining bor bo’lishi uchun sababga ehtiyoj sezadi, va qachonki u paydo bo’lsa, boshqa narsa tufayli, «vojib ul-vujud» ga aylanadi. Forobiyning ibtidolar haqidagi ta’limoti shundan guvohlik beradiki, unga yangi aflatunchilikning emanatsiya nazariyasi ta’sir o’tkazgan bo’lib, u ilk islom e’tiqodidagilarning nuqtai nazarlaridan mohiyatan farq qiladi.

Birinchi sabab (vojib ul-vujud) abadiylik xususiyatiga ega bo’lganligidan, modda ham, uning oqibati sifatida abadiylikka daxldor bo’ladi. Yerdagi va osmondagи doiralarning barchasi jismiylik (moddiylik) xususiyatiga egadirlar. Barcha narsalar olti ko’rinishga bo’linadilar: samoviy jismlar, aqlli hayvon (inson), aqlga ega bo’lmagan

hayvonlar, o'simliklar, minerallar, to'rt unsur-olov, havo, tuproq va suv. Oxirgilari moddiylikning asosi bo'lib, moddaning eng oddiy ko'rinishini ifodalaydilar. Qolgan besh turdagisi murakkab bo'lib, ushbu birlamchi unsurlarning turli darajadagi qo'shilishlari natijasida paydo bo'ladilar. Forobiy fikricha, «barcha ashyollarning umumiyligi turi dunyo» bo'lib, oddiy jismlardan tashkil topgan va «dunyodan tashqarida hech narsa yo'q».

Har qanday jism, avvalo imkoniyatda mavjud bo'ladi va undan keyingina voqeylekka aylanadi. Imkoniyatdan voqeylekka o'tish moddaning muayyan shakl bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi. Forobiyning qarama-qarshiliklar va ularning qarama-qarshi shakllarining bir-birlari bilan to'qnashishi haqidagi fikrlari, tabiatdagi o'zgarishlarni tushunish manbai sifatidagi urinishga qaratilgan bo'lganligidan, juda ham qimmatlidir.

Insonni dunyoni bilib olishida faol aql (al-aql al-faol) ishtirok etadi. U his-tuyg'u ma'lumotlarini tafakkur uchun yetkazadi. Tafakkur har tomonlama chuqur bilimga olib boradi. Pirovardida, u dunyo to'g'risidagi barcha bilimlar bilan boyib, abadiylikka olib keladi. Faol aql inson bilan birinchi sabab o'rtasida vositachi sifatida xizmat qiladi. Birinchi sabab uning o'ziga ham taalluqlidir. Faol aql badanda joylashgan ruh bilan bog'langan. Shunday qilib, ilohiy hayotning xususiyati insonga o'tadi va uning bilimlari aqliy kuch timsolida abadiylikka qadam qo'yadi.

Forobiy o'z asarlarida inson bu dunyoga nima uchun kelganini anglashi kerak deb uqtiradi. Buning uchun esa o'zi yashayotgan olamning umumiyligi qonunlaridan boxabar bo'lishi kerak. Birinchidan, inson bu olamning asliy sababini va uning barcha sifatlarini bilishi zarur. So'ng moddiylikdan tashqarida mavjud narsalarini va ularning sifatlarini, shuningdek ularni faol aqlga qadar bo'lgan darajalarini hamda ularda har birining sifatlarini bilishi zarur. So'ng samoviy hilqatlarni va ulardan har birining sifatlarini, so'ng shu hilqatlardan pastdagi tabiiy jismlarni, shuningdek, ularni qanday vujudga kelishi va yo'qolishi hamda ularda yuz berayotgan barcha hodisalarini mukammaligi, yahlitligi, muruvvat, adolat bilan, oqilona ekanligini, bu hodsalarda hech bir nuqson, hech biradolatsizliklar yo'qligini bilishi zarur.

Inson mukammallikka erishishi uchun odamzod qanday yaralganini (uning jismiga kirgan) ruhning hususiyatlarini, faol aql uning ruhini qanday qilib nurlantirganini, shu tufayli insonda dastlabki tushunchalar paydo bo'lganini bilishi zarur. Shuningdek, inson Allohnning irodasi va insonda mavjud bo'lgan iroda erkinligi o'rtasidagi farqni bilishi zarur. Komil inson shahar (davlat) ning birinchi rahbari u yoki bu vaqt mobaynida yo'q bo'lib qolganida (safarga ketganida, kasalligida va hokazo), uning o'rnnini bosa oladigan rahbarlarni bilishi zarur. Qolaversa, inson o'zi erisha oladigan baxt – sodat nima ekanligini bilishi zarur. U insonlar o'lganidan so'ng ruhlari oxiratda ne kechishini, ba'zilari baxtsizlik, falokatga uchrab, ba'zilari yo'q bo'lib ketishini,

fozillar shahri aholisi ohiratda nelarga erishuvini, nelardan saqlanishlarini bilishi zarur, deb hisoblagan.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, dunyo fani va madaniyati, uyg’onish davrining ko’zga ko’ringan vakillaridan biri bo’lgan Forobi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o’rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o’chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko’proq Arastuning asarlarini targ’ib qildi, ularning ko’plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan me’roslarini to’la o’rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobi yunon mutafakkirlarining g’oyalariga ko'r-ko'rona ergashib qolmadi, balki ko’p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o’z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o’zini namoyon qildi. Forobi birinchi bo’lib Alloh taoloning borligiga olamni dalil qilib ketirmay U zotning borligini yolg’iz aqliy dalil bilan isbot qilishning yangi uslubini ishlab chiqdi. Va shu yo’l orqali antik davr yunon falsafasi va islom ta’limotini murosaga keltirdi. Qolaversa, uzoq asrlar davomida ko’plab baxs munozaralarga sabab bo’lib kelayotgan olam va odam to’g’risidagi jumboqlarga mukammal javob berdi. “Olam, odam yaratilganmi? Olamning cheki bormi? Hayot abadiymi? Baxt nima?” kabi bir qancha falsafiy savollarga Forobi ilm va din nuqtai nazaridan javob ishonchli javob berdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobi. Aflatun qonunlari mohiyati haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 180 b.
2. Abu Nasr Forobi. Arastu falsafasi. // Forobi. Fozil odamlar shahri. – T. Xalq merosi. 1993. – 330 b.
3. Xayrullayev M. Uyg’onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: Fan, 1993. – 274 b.
4. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.
5. Adamson, Peter. In the age of Al Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2) – L.: Press, 2011. – 247 p.
6. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. – 298 p.
7. XXI World Congress of Philosophy. Abstracts. – Istanbul: Turkey, 2003. – 444 p.